

“MALLA SAVDOGAR” DOSTONIDA SHAROB – BADFE’LLIK RAMZI SIFATIDA YORITILISHI

Achilova Zuxra Qurbonovna

Shahrisabz davlat pedagogika insituti

o‘zbek tili va adabiyoti yo‘nlisi magistratura bitiruvchisi

***Annotatsiya:** Maqolada Malla savdogar dostoni variantlarida Ahmad vazir va xatxabarchi qizni sharob bilan bog‘liq voqealar syujeti nafs va nomus o‘rtasidagi kurashini ifodalashi bayon etilgan.*

***Kalit so‘zlar:** Ahmad vazir, xatxabarchi qiz, sharob, nafs, nomus.*

Malla savdogar dostonida Go‘ro‘g‘lining tog‘asi Ahmad vazir boshqa variantida Ahmad sardor timsolida o‘z manfaati va farog‘ati uchun munofiqlik, ayyorlik ramzi bilan bir qatorda nafs va sharob genezisi bilan bog‘liq voqealar ro‘y beradi.

Dostondagi sharob ma’juzida inson botining nafs rujusi namoyon bo‘ladi. Nafslasida inson ehtiyoji, biroq, ehtiyojdan ortig‘i esa insonni tubanlashuviga, yovuzlik xususiyati kuchayishiga, ruh va qalbni parokandalikka olib borishi, insoniyat jamiyatiga turli ko‘rinishda xaf tug‘dirishi va ezgulikdan yiroqlashishga sabab bo‘lishi tayinligi og‘zaki va yozma adabiyot asarlarida turlicha yoritilgan.

Malla savdogar dostonidagi Ahmad vazir o‘z yoshiga yarashmagan “nafs” kimsasi tarzida gavdalanadi. Sharob bilan bog‘liq syujetda “uning shum niyati” doston variantlarida voqelanadi. Albatta sharob turkiy xalqlar ichimligi bo‘lmagan. Bunga dalolat sharob tarixi bilan bog‘liq turli tarixiy rivoyatlarga duch kelamiz.

Jumladan, sharobni kim o‘ylab topganligi haqida shunday hikoyat etishadi:

Qadimiy Eron hukmdori Jamshid Jamning nomi birinchi bo‘lib sharobni o‘ylab topgan kishi sifatida tarixda qolgan. Jamshidning sharobni o‘ylab topishi bunday sodir bo‘lgan:

U bir kuni ov qilish uchun a'yonlari bilan toqqa yo'l oldi. Ketayotib tasodifan g'arq pishib yotgan uzumzorga duch keldi. Uzumdan terdirib, achitqisini o'limga mahkum qilingan qotillarni ko'proq qiynab o'ldirish uchun ularga berishni buyurdi. Uning farmoniga binoan achitqidan siqib olingan sharbatni o'limga mahkumlarga zo'rlab ichirishdi. Shunda mahkumlarning biri qattiq uyquga ketdi. Bir qancha vaqt o'tganidan keyin uyg'onib, o'ziga keldi va yana ozgina ichirishlarini so'radi. Ikkinchi marta sharobga to'yib olgach, xursandchilikdan ko'zlari zavq-shavq bilan porlay boshladi. Bu holatni hayrat bilan kuzatib turgan Jamshid sharbatdan tatib ko'rishga jazm etadi. Undan keyin a'yonlar ham ichib ko'rishadi. Hammalari ichkilikning kayfi bilan es-hushlarini yo'qotishadi.

Shunday qilib, hukmdorning barcha marosimlarida uzumdan tayyorlanadigan ichimliklar ichish odat tusiga kirdi. Har gal dasturxon tuzalib, Jamshid yoronlari bilan davra qurar ekan, albatta mast bo'lib, vaqtichog'lik qilishar edi. Unga «Jam an'anasi, Jam marosimi» nomini berishdi.

Jamshid Eronda zardushtiylardan ham oldin sharob ichish marosimini o'tkazgan, yig'inlarda turli xil ichkiliklar bilan fuqarolarini «siylagan». Asta-sekin sharob ichish urfga kirib, insonlar sharobxo'rlik va mastlik balosiga yo'liqishgan, axloqsizlikka yuz tutishgan. O'lkada bora-bora jirkanch va qabih bir hayot tarzi vujudga kelgan.

Keyinchalik asma daraxtining uzumlari ajratib olinib, achitqisidan tayyorlangan sharob qo'shni xalqlarga ham tarqatilgan. Qadimgi misrliklar, ibroniylar, yunonlar shu tariqa ichkilikka muhtalo bo'lishgan edi. Bora-bora Hindiston, Rum, Xitoy, Arabiston, Shom (Suriya), Misrda turli ko'rinishlarda ichkiliklar paydo bo'ldi, insoniyat mastlik va xorlik sari shiddat bilan keta boshladi.

Asrlar o'tib, Jamshid bazmlari tillarda doston bo'lgan ("Bazmi Jamshid" iborasi hatto bizda hozirgacha ham ishlatib kelinadi). Insonlar bir-birlarini sharob bilan siylab, o'sha bazmlarni yodga olishgan, ichkilik majlislari, ziyofatlari uyushtirib, gunohlarga botishgan. Shu tariqa sharobni o'ylab topgan Jamshid Jamning nomi odamlar orasida mashhur bo'lib ketgan. Mayxo'rlar doim Jamning sharafiga

ichishgan, uni xotirlab, may qadahini “Jomi Jam” deb nomlashgan. Mayparast shoirlar uni sharaflab, ash’or yozishgan, insonlar orasiga yomonlik urug’larini sochishgan, qancha avlodlarni razolatga boshlashgan (Muhammad Kamol. “Barcha yomonliklarning boshi” kitobi, 21-23-betlar). [3.internet manba. Tarix.uz]

Sharob bilan bog’liq yana bir afsona mavjud. Ya’niki, To‘marisning o‘g‘li Sparangiz ham ana shu sharob tufayli mag‘lubiyat qurboniga aylanadi. Bu afsona voqeasi quyidagicha:

Asir tushgan bir eroniy so‘roq vaqtida Siparangizga shunday dedi:

– Ulug‘ sarkarda ekansiz, bizni g‘aflatda qqoldirib, ustimizga balo-qazoday bostirib kelib qoldingiz. Biz endi bazmi jamshid boshlagan edik. – U sharob to‘la meshlarga va zarrin koslarga, ovqat suzilgan tovoqlarga ishora qildi. –Bular bizga emas, sizlarga nasib qilgan ekan.

–Ovqatlaringiz, sharoblaringiz o‘zingizga buyursin, bizning ziyofat yemoqqa vaqtimiz yo‘q, – dedi. Siparangiz sharob suzilgan kosalarga qarab, ammo o‘zining bir totib ko‘rgisi kelib turardi.

–Yigitlar yo‘l yo‘rib, jang qilib charchadi, otlar ham toliqdi, ularga biro z dam bermoq kerak, – dedi yosh sardorning yigitlaridan biri. –tamaddi qilib, so‘ng darhol otlanamiz.

–To‘g‘ri, ozroq dam olaylik, tamaddi qilaylik, –deyishdi qorni ochgan yigitlar dasturxonlardagi nozu-ne‘matlarga qarab.

Siparangiz ikkilanib qoldi, keyin:

–Hoy chol, –dedi asir eroniyga qarab. –Boshing uchun rost so‘yla, ovqat va sharoblarga zahar solingan emasmi?

–O‘zimiz yemoqchi bo‘lgan ovqatga nega zahar solayin? Nima, o‘zimizga o‘zimiz dushmanmizmi? Barcha xudolarning xudosi Ahuramazda* shafe keltirib qasamyod etamanki, biz bu noz-ne‘matlarga zahri qotil solganimiz yo‘q.

–So‘zlaringning to‘g‘riligini isbotlash uchun bulardan yeb-ichib ko‘r-chi!

Askar sharob ichib, tovoqdagi go‘shdan yeb ko‘rsatdi. Qo‘lga tushirilgan boshqa eroniylarga ham sharob ichirib, ovqat yedirib, ularning zaharlanmaganiga

qanoat hosil qilgandan so‘ng, yigitlar dasturxonlar yoniga o‘tirdilar-da, sharoblarni no‘sh etib, pishirib qo‘yilgan go‘shlarni tushira ketdilar.

O‘tkir sharob umrida ichkilik qilmagan yoshlarga darrov ta’sir qila boshladi. Ular hiringlab, bir-birlari bilan askiya qila boshladilar. Qorovulga qo‘yilgan otliqlar ham bensib qolmasinlar, deb ularga ovqat va may oborib berdilar. Bir oz ovqatlanib otlanmoqchi bo‘lgan yigitlar og‘izlariga ichkilik tegishi bilan xursandchilikka berilib, qancha vaqt o‘tganini bilmay qolgan edilar.[4.22-23-b.]

Qissada ma’lumki Siparangiz hushyorlikni yo‘qotgan holda eron shohi Kayxisrav tuzog‘iga tushib halok bo‘ladi.

Malla savdogar dostonidagi variantlarda sharob detail orqali Ahmad vazirni botinidagi nafs va xatxabarchi qiz Oydonaga, boshqa variantlarida Zulfizar, Guloyim, Oyzaynab timsollari orqali qiz bolaning or-nomusi, sha’nu –qadrini mardona himoya qilishi yoritiladi. Ayni sharob bilan bog‘liq syujet variantlarni ko‘rib chiqish o‘rinlidir:

Baxshi Jo‘ra Eshmirza variantida sharob bilan bog‘liq syujet voqeasi shunday kechgan:

Xatxabarchi qiz Oydonaga munosabati yaxshi emasligini bilib, Ahmad vazirdan o‘zini himoya qilish maqsadida:

“Bu beimonning nazmi yomon. Indamay o‘tirsam, shu kecha meni omon qo‘ymaydi. Kel-e, balodan ilgari sadaqa, suvdan oldin bo‘g‘ot. Shuning oldidan bir bo‘g‘ot. Shuning oldidan bir bo‘g‘ot tashlay qani. Aql olgan qulday bo‘lib, yerga to‘shalgan sholday bo‘lib qola berarmikan yoki shunda ham menga uzala berarmikan”, – dedi. Ahmad vazirga “bir shisha aroq olmoqlikka pulingiz yetmadimi yoki aqlingiz yetmadimi?- deb sharob olib kelishga undaydi. Ahmad vazir sharbatxonasidan qiyomiga yetgan ikki xumdan ikki kosaga sharobni mis patnisga qo‘yib mehmon oldiga qo‘yadi. Mehmon “osh egasi bilan totli” deya avval mezbon ichishni boshlab berishni so‘raydi. Mezbon esa “mehmon otayi xudo” degan gap borligini aytadi. Mehmon yana “yetmish yashar kampir martabasidn yeti yasharli o‘g‘il bolaning martabasi ulug‘ ” deya odob yuzasidan sharob ichishni Ahmad

vazirga mulozamat qiladi. Ahmad vazir qizni gapidan so'ng bir kosa aroqni to'kmay ichgan chog' shokosa qo'lidan tushib, mis patnisga tegib, tariqday maydalanib ketadi. Ahmad vazir hayron qotgan lahzada qiz joyidan turib, uni ko'krigidan itarib yubaradi. Mehmon qiz yov-yarog'ini olib, chiroqni puflab uchirib, yiqilib qolgan Ahmad yiqilib qolgan vazirni qorniga o'kchali etigi bilan to'qqiz marta tepadi. "bizdan topgan ayshu ishrating shu" deb uydan chiqib ketadi. [1.306-b.]

Baxshi Chorshanbe Rahmatullayev variantida Bog'dod mamlakatining podshohi Shahanshohning qizi Zulfizarning kanizi Oyxumorni erkakcha kiyintirib Chambilga yuboradi. Ahmad sardor Chambil tepaligida uch kundan buyon mehmon kelishini kuzatadi va to'rtinchi kunda Sulduz tog'i yaqinida bir otliqni ko'radi. Go'ro'g'lidan suyunchi olmoq uchun shoshib ketmoqchi bo'ladi, lekin, ortiga qaytib kelayotgan otliqdagi kimsa uning ko'ziga shubhali ko'rinadi.

**O'ynab kelayotir mingan hayvoni,
Ko'zlagan Chambilbelning makoni,
Beqarorlar bo'ldi Ahmad nodoni,
Anig'ini bilib olayin, qani,
Yo ulmikan, yo qizmikan mehmonim.**

Uning qaddi-basti erakka o'xshamasligini durbin orqali fahmlaydi.

**Mingan oti Olatarlon bo'z ekan,
Ahmad sardor shunday o'tkir ko'z ekan,
Fikru xayollari juda tez ekan,
Anig'ini bilib oldi Ahmadxon,
Kelayotgan mehmon go'zal qiz ekan.**

Ahmad sardor mehmonni qiz bola ekanligini bilgach xayolida rejalar tuzadi. Go'ro'g'lidan mehmonni o'z uyiga bir kechaga olib ketish iznini so'rash va u bilan vaqti chog'liq qilishni ko'ngliga to'yadi. [2.7-8-9-]

Ahmad sardor Go‘ro‘g‘li saroyiga shodiyona, tantana bilan mehmonni olib boradi. Mehmondorchilik qoidalari bajo keltiriladi. Shundan so‘ng Ahmad sardor mehmonni Go‘ro‘lidan

**Bulbul qo‘nadi g‘unchaga,
Kaklik sayragan archaga,
O‘lim barobar barchaga,
Mash‘ala yonganko‘chaga,
Sultonim, sendan so‘rayman
Shul mehmonni bir kechaga.**

Go‘ro‘lini qahri kelganda Ahmad sardor tog‘a sifatida guyoki Chambil mamlakatini qudratini ko‘rsatishini vaj qilib, mehmonni o‘z uyiga olib ketadi.

Makkor Ahmad sardor mehmonni uyiga olibkelgach qizni o‘g‘il bola eaknligini bilgnini aytadi. Qiz vaziyatdan chiqish maqsadida, guyoki Ahmad sardor bundan biro y tushiga kirgani, unga oshiq bo‘lagni, shu boisi erkakacha kiyinib Chambilga kelganini aytadi. Uzoq yo‘l bosgani va charchaganini so‘zlab, Ahmad sardor bilan sharobxo‘rlik qilishga undaydi.

Ahmad sardor xizmatkorlariga o‘tkir va achhig‘i tezroq sharob keltirishni buyuradi.

Xizmatkorlar o‘n olti ko‘zaga o‘tkir sahrob olib kelib, dasturxonga qo‘yishadi. Ahmad sardor sharobni mehmonga qo‘yib uzatmoqchi bo‘lganda qiz ko‘zachani olib, “bir umrlik hamrohingizman, yoringizman, xizmatkoringizman” deya mulozamat ko‘rsatadi.

**Bo‘lib qoldi yarimkecha,
Uyquga ketgandir barcha,
Ahmad tili bo‘ldi g‘alcha,
Bo‘shadi o‘n bir g‘o‘licha,*
Gildirashib ko‘p ko‘zacha,
Ayni sahar vaqt bo‘lganda
Ahmad yiqildi chalqancha.**

Qiz Ahmad sardorni o‘zini bilmas holatga tushgan paytdan foydalanib, vaqtni boy bermay, uni og‘izga yana bir ko‘za sharobni qo‘yib, o‘kchasi baland etigi bilan og‘ziga zar bilan tepib, og‘zini qomga to‘ldirib, tishlarini sindirib tashlaydi. “Bu imonsiz choldi sharmanda qilayin”, – deb sonidan bir parcha kesib oladi, bir qulog‘ini kesib otib yuboradi.

Qiz uydan chiqib otini olishga boradi. To‘qqizta says mast uyquda bo‘lgan pallada qiz otni kishanlarini kesib, sekin yetaklab chiqib otga minib darvozaga yetadi. [1.25-26-27-28-b.]

Baxshi Shoberdi Boltayev variantida Ahmad sardor Shohdorxonni qizi Guloyim bilan kechgan sharob voqeasi quyidagicha:

“Ahmad sardorning 40 yigiti xizmatini qilib yurar edi. Otdan tappa tayladi, otni qoziqqa boyladi, 40 zinali eshikdan kirib mehmonxonoga joyladi. Qirqin qiz yozdi dasturxonni, tayladi nondi, to‘kdi pista-bodomdi, 40 xil taomni qo‘yib, izidan ko‘zaga eski sharobidan olib keldi. Shunda Ahmad sardor: “Hu qizim, elimizning qadasi* shunday, bir eldan bir elga mehmon keladi. Mehmon ko‘nglini mezbon oladi, oldig‘a sharob qo‘yadi, qo‘ygan sharobdan ichadi. Mard bo‘ls jonidan kechadi. Mehmon ulug‘ bo‘ladi, qizim boshla” – dedi.

Qiz:

– Taom uy egasi bilan totli, siz boshlang, - dedi. Qizning jamoliga oshiq bo‘lib, boshlasam boshlayin deb ko‘zada o‘zining sharobini ko‘tardi, shu vaqt qiz tepib yubordi. Ahmad chol qaramon bo‘b ag‘nadi., burnini qisdi, og‘zi ochildi, qiz o‘zining sharobini og‘zidan qo‘ydi. Ahmad chol mast bo‘b dustamon* bo‘b ag‘nab qoldi. [2.197-198-b.]

Baxshi Abdunazar Poyonov kuylagan variantida esa Chambil elidagi qirq yigitning biri Xoldorxon o‘g‘lini sunnat to‘yi boshlagani, to‘yda ko‘pkari uyushtirilishi va bunda Ahmad sardor bakovullik qiladi.

Ko‘pkari vaqtida uzoqdan bir jiyron tubal otliq kelayotgani va Ahmad sardorni ko‘ziga g‘alati ko‘ringani yoritiladi. Doston bayonida Ahmad sardorni ko‘zi

o'tkirligi, yuragi sezgirli, baxshi ta'rifiga ko'ra "tulkini urg'ochi yoki erkakligini bir kunlik yo'ldan bilishi" suylanadi.

**Kiyiklar kezadi tovonlar qatini,
Chabog'onlar minsin tulpor otini,
Zo'rlari bilinear endi maydonda,
Men aytaman to'y egasi zotini.**

Ahmad sardor tilidan to'y ko'pkarisi uchun qo'yilgan sovrinlar aytilgach, chavandozlar maydonga shaylanadilar. Bunda Avazxon G'irotdan bilan qatnashib, qo'radan takani olib chiqib ketayotgan lahzada, jiyron to'bal otli notanish chavandoz uloqni tortishib ketadi. Avazxonni taqimidan takani sug'urib oladi, ammo, halol bo'lmasdan tushirib yuboradi. Kuzatib turgan Ahmad sardor bu chopag'on erkak emas, ayol ekanini sezadi. Ko'pkari tugagach, Ahmad sardor mehmon chavandozni yoniga kelib kimligini so'raydi. Chavandoz Misr mamlakatidan kelgani hamda Misr podshohi Shoxdorxon yolg'iz qizi sah'niga to'y berib, ko'pkari, kurash uyushtirayotgani, Chambil mamlakatini chavandoz, polvonlarini bunga aytish uchun kelgan xabarchi ekanligini aytadi. Ko'pkari bahona Go'ro'lini o'g'lini tanigani va endi Go'ro'g'lini huzuriga borishi lozimligini aytadi. Ahmad sardor mehmonni Go'ro'g'li o'rdasiga olib boradi mehmonni kelish sababi ayon bo'lgach, kechki paytda Ahmad sardor mehmonni Go'ro'g'li ruxsati bilan o'z uyiga olib ketadi. Mehmonni uyiga olib kelgach, Ahmad sardorni xizmatkorlari mehmon uchun dasturxon tuzab, turli nozu-ne'matlar bilan siylab, ko'zalarga sharob, musallasni olib kelib uzatisahdi. Suhbat qizib, yarim kecha bo'lgach Ahmad sardor xizmatkorlariga imo-ishora qilib javob beradi va ichkaridan eshikni yopadi. Mehmon yoniga kelib, bu xonada ikkovidan boshqa kimsa yo'qligi, mehmonni erkin o'tirishini aytib, uning bosh kiyimini olib qo'yadi. Shunda mehmonni o'ralgan sumbul sochi pastga yoyilib ketadi. Ahmad mehmonni qiz ekanligini bilganligi aytib, unga tegajog'lik qilmoqchi bo'ladi. Qiz esa o'rnidan turib, Ahmad sardorni belidan ushlab yerga tashlab, bo'yniga tebib, hushidan ketkazadi. Chalqancha qilib og'ziga tepib tishini ham sindiradi, oyoq-qo'lini mahkam bog'lab tashlaydi. Eshikni bir tepib ochib, sochini

yig'ishtirib telpagini kiyib, otini yoniga boradi. Qarasaki oti kishanlangan, hovli darvozasi qulflangan, qorovullar sharobdan mast bo'lib, xurrak otib uxlashayotgan bo'ladi. Qiz otini kishanlarini kesib, keyin minib, qulflangan darvozadan ham irg'ib o'tib ketadi. [2.278-279-280-281-282-283-284-b.]

Keltirilgan har to'rta variantda ham sharobdan hushyorlikni yo'qotgan makkor Ahmad va qizlik sha'nini himoya qilgan jasur xabarchi qiz timsoli doston voqe-hodisasi faollashuvi vazifasini bajargan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Malla savdogar dostoni, Baxshi Jo'ra Esmirza varianti, 25,26,27-b,306-b, ziyo.uz com kutubxonasi manbasi.
2. Malla savdogar dostoni, Baxshilar Chorshanbi Rahmatullayev, Shoberdi Boltayev, Abdunazar Poyonovlar variantlari,7,8,9-b, 197-198-b, 278-279-280-281-282-283-284-b.T.“Akademnashr” 2019-yil.
3. Muhammad Kamol.“Barcha yomonliklarning boshi” kitobi, 21-23-betlar). [internet manba. Tarix.uz].
4. Mirkarim Osim. Karvon yo'llari (tarixiy qissalar)22-23-b, T. G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti,1987-yil.